



TURISTIK BIZNES TARAQQIYOTI VA UNI RESPUBLIKADA RAQOBATBARDOSHLIKKA MOS RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

PhD, dots. **Janzakov Bekzot**

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

ORCID: 0000-0002-7069-5309

b.janzakov@univ-silkroad.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada turistik biznes taraqqiyoti va uni respublikada raqobatbardoshlikka mos rivojlantirish yo'llarini takomillashtirish iqtisodiyotning muhim vazifalaridan biri sifatida shakllanib borayotganligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu soha nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki aholining turmush darajasini yuksaltirish, bandlikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, strategik yo'nalishlar, turizm sohasi, turistik xizmatlar, turizm, keshbek tizimi.

РАЗВИТИЕ ТУРИСТИЧЕСКОГО БИЗНЕСА И ПУТИ ЕГО АДАПТАЦИИ К КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ

PhD, доц. **Жанзаков Бекзот**

*Международный университет туризма и
культурного наследия «Шёлковый путь»*

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития туристического бизнеса и путей повышения его конкурентоспособности в республике, что становится одной из важных задач экономики. Эта сфера играет важную роль не только в обеспечении экономического роста, но и в повышении уровня жизни населения, росте занятости и укреплении социальной стабильности.

Ключевые слова: национальная экономика, конкурентоспособность, стратегические направления, туристический сектор, туристические услуги, туризм, система кэшбэка.

DEVELOPMENT OF THE TOURISM BUSINESS AND WAYS OF ENHANCING ITS COMPETITIVENESS IN THE REPUBLIC

PhD, assoc. prof. **Janzakov Bekzot**

*Silk Road International University of
Tourism and Cultural Heritage*

Abstract. The article examines the development of tourism business and ways to improve its competitiveness in the republic, which is becoming one of the important tasks of the economy. This area plays an important role not only in ensuring economic growth, but also in improving the standard of living of the population, increasing employment and strengthening social stability.

Keywords: national economy, competitiveness, strategic directions, tourism sector, tourism services, tourism, cashback system.

Kirish.

Hozirgi paytda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Shu tufayli bugungi kunda butun dunyo nazari Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyani amalga oshirishga qaratilgandir. "Strategiyaning "Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash"ga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish" (norma.uz, 2022) vazifasi qo'yilgan.

Ushbu vazifaning bajarilishi makro darajada turizm sohasini rivojlantirish, YalMdagi ulushini oshirish, aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, xalqaro standartlar asosida yangi turistik xizmatlar assortimentini ko'paytirish, yangi yo'nalishlardagi turistik marshrutlarni ko'paytirish, turistlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish tadbirlarini tashkil qilish, zamonaviy turizm infratuzilmasini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon xo'jaligining globallasuvi va integratsiyalashuvi kuchayib borayotganbir davrda turizm tushunchasining mohiyatini to'g'ri talqin etish va uning mohiyatini to'g'ri anglab yetish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu haqda xorijiy va mahalliy olimlarning fikri turli-tuman bo'lib, turlicha qarash va konsepsiyalar mavjud.

Rossiyalik iqtisodchi olim Vinokurov (2004) turizmga "Turizm bu – hordiq chiqarish, davolanish, sport bilan shug'ullanish, ziyorat qilish, biznes qilish maqsadida inson tomonidan bo'sh vaqtda amalga oshiriladigan sayohatdir" deb ta'rif bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim To'xliyevning (2010) ta'rifiga ko'ra, turizm bu – turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turidir.

Turizmni rivojlantirishda turizm bozori muhim o'rin tutadi. Rossiyalik iqtisodchi Balabanovning (2003) fikricha, "Turizm bozori-turistik mahsulot iste'molchilari va sotuvchilari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat".

Turizm sohasining asosiy obyektlaridan biri – turistik xizmatlar bo'lib, Rossiyalik iqtisodchilar Zorin va Kvartalnovlar (2003) turistik xizmatlarga quyidagicha ta'rif beradilar:

Turistik xizmatlar – bu turistik ehtiyojlarni qondiruvchi asosiy, qo'shimcha va kompleks xizmatlar majmuidir. Ular asosiy xizmatlarga sayyohlikni tashkil qilish va o'tkazish uchun zarur xizmatlar, qo'shimcha xizmatlarga sayohat o'z ichiga olmagan va ehtiyoj bo'lgan holda dam olish joyida taqdim qilinadigan xizmatlar, kompleks xizmatlarga chiptada kafolatlangan turistik xizmatlar majmuini kiritganlar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, statistik ma'lumotlar asosida ularni tahlillari amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jahon bozorida to'yilmagan (yoki kam raqobatli) segmentlar o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zbekiston turistik biznesi aynan shunday holatni ifodalaydi. 1991-yil mustaqillikka erishilgandan so'ng, O'zbekiston turizm sohasi bo'yicha jahon bozoriga nisbatan nisbatan kech chiqdi. 2000-yillarning o'rtalariga kelibgina mamlakatda turizm infratuzilmasi jadal shakllana boshladi. Bu esa O'zbekistonni hali to'liq ekspluatatsiya qilinmagan, yangi va istiqbolli turistik yo'nalish sifatida ko'rsatdi.

Boshqa rivojlangan turizm bozorlariga (masalan, Fransiya, Italiya, Turkiya) qaraganda, O'zbekistonning jahon miqyosidagi marketingi va brendingi hozircha cheklangan, bu esa investorlar va yangi xizmat ko'rsatish subyektlari uchun bozorning ochiqqligini anglatadi. Hozirgi kunda O'zbekiston YUNWTO (BMTning Turizm bo'yicha Butunjahon Tashkiloti) tomonidan Markaziy Osiyodagi yangi yulduz sifatida e'tirof etilmoqda.

2022-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 5.2 millionni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 2024-yilda 10 milliondan oshdi. Shunga qaramay, Yevropa va Osiyoning ko'plab davlatlariga nisbatan bu ko'rsatkich hali past darajada, bu esa bozorning to'yilmaganligini ko'rsatadi. Bu holat yangi biznes subyektlari, mahalliy startaplar, hamda xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekiston turizm sektorining eng muhim ustunliklaridan biri bu – boy turistik resurslar majmuasining mavjudligidir. Yurtimizda turistik biznes uchun soliq, bojxona imtiyozlari, qulay investitsion muhit, turizm infratuzilmasining takomillashtirish zarurligi hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning yo'lga qo'yilganligi yangi biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Respublikada turistik biznesni rivojlantirish xususiyatlari

Mamlakatda quyidagi asosiy resurslar mavjud:

Madaniy-tarixiy obidalar: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlarda joylashgan me'moriy yodgorliklar (Registon maydoni, Shohi Zinda, Ark qal'asi, Kalon minora va boshqalar).

Tabiiy turizm resurslari: Chatqol, Zarafshon, Nurota, Hisor tizmalari, Orolbo'yi, Moynoq, Sudochye ko'li.

Eko-turizm imkoniyatlari: Ekologik toza hududlar, milliy bog'lar (Zomin, Kitob, G'uzor biosfera zonasi) va cho'l hududlaridagi safarlar.

Etnografik va gastronomik turizm: Har bir hududning o'ziga xos an'anaviy hunarmandchiligi (Rishton kulolligi, Marg'ilon ipakchilik), milliy taomlar (osh, somsa, lag'mon, norin) va urf-odatlar.

O'zbekiston hududida 7400 dan ortiq tarixiy yodgorliklar mavjud bo'lib, ularning 4 tasi YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa turizm resurslari jihatidan mamlakatni dunyo bo'yicha yetakchi pozitsiyalarga chiqarish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston hukumati 2016-yildan boshlab turizm sohasini milliy iqtisodiy o'sishning "drayver"i sifatida e'tirof etdi. 2019-yilda Prezident farmoni bilan Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi, keyinchalik bu agentlik darajasiga ko'tarildi. Yiliga ikki marta

turizm bo'yicha maxsus qaror va farmonlar e'lon qilinadi, ularda infratuzilma, xizmat sifati, investitsiya sharoitlari va eksportni rag'batlantirish masalalari aks ettirilgan.

Yirik tashabbuslar quyidagilardan iborat:

- 90 dan ortiq mamlakat fuqarolari uchun vizasiz rejim.
- Yagona milliy sayyohlik brendi ("Uzbekistan. Open your heart for us").
- "Ipak yo'li" turizm koridorining faol qo'llab-quvvatlanishi.
- Har bir viloyatda turizm markazlarini tashkil etish.
- Buxoro va Xivani "sayyohlik shahar"lari sifatida brendlash.

Davlat tomonidan taklif etilayotgan subsidiyalar, soliq imtiyozlari, yer ajratish bo'yicha preferensiyalar esa xususiy sektorni faol jalb etishga xizmat qilmoqda.

Turizm - nisbatan qisqa muddatda daromad keltiruvchi xizmat sohasi bo'lib, iqtisodiy turg'unlik vaqtlarida ham barqaror daromad manbai sifatida ishlaydi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda turizm asrlar davomida yashab kelgan an'anaviy faoliyat turi hisoblanadi. 9-10-asrlardayoq Ipak yo'li orqali kelgan savdogarlar va sayohatchilar mahalliy mehmonxonalar, karvonsaroylar, hammomlar, bozorlar va madrasalarda xizmat olgan.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardosh-ligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, bularning barchasi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiqdir.

O'zbekistonda ham turizm sohasi iqtisodiyotimizning bir sektori sifatida yalpi ichki mahsulotga tushum keltiradi. Xorijiy valyuta tushumi bo'yicha turizm sohasi mamlakatimizda yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va aholi bandligini taminlashning ham asosiy vositasi hisoblanadi. Turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash uchun ba'zi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 232-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hamkorligida «Keshbek» tizimi taqdim etildi.

Mazkur tizimga ko'ra 2022 yil 1 sentyabrdan boshlab «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» dasturi doirasida «Sayohat qil va keshbek ishla» shiori asosida respublika hududlari bo'ylab ichki sayohatlarni amalga oshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xarajatlarining bir qismi qaytarib beriladi (bugun.uz, 2022).



2-rasm. «Sayohat uchun keshbek» platformasi

«Sayohat uchun keshbek» platformasi bilan ishlash juda oson. Buning uchun Sayyoh:

- Soliq.uz mobil ilovasini yuklab oladi;
- mobil ilova xizmatidan foydalanish uchun FaceID orqali shaxsingizni tizimda tasdiqlaydi;
- sayohat yo'nalishini va boshlanish sanasini tanlaydi;
- keshbeklarni yig'ish uchun fiskal cheklarni skanerlash orqali avia, temir yo'l yoki avtobus biletlarini ilovaga kiritadi;
- maroqli sayohatdan so'ng «Sayohatni tugatish» tugmasini bosasiz va yig'ilgan keshbek summalarini shaxsiy mahalliy bank plastik kartasiga o'tkazadi.

Keshbek tizimi Davlat soliq qo'mitasining maxsus mobil ilovasi (SoliqUz) bilan integrasiya qilingan bo'lib, xarajatlar haqqoniyligi mobil ilova yordamida tekshirilib, xarid cheking matrisali shtrix kodini (QR-kod) hamda mahalliy turistlarning doimiy yashash joylarini ko'rsatish orqali sayohatlar ro'yxatdan o'tkaziladi.

Sayohat xarajatlarini qaytarish sayohat qilish davomida bir vaqtning o'zida quyidagilar nazarda tutilganda amalga oshiriladi:

- avia, temir yo'l va avtobusdan foydalanish;
- joylashtirish vositalari xizmatlaridan foydalanish;
- madaniyat tashkilotlariga tashrif buyurish.

Sayohat xarajatlarini qaytarish har bir turistga quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

- aviaqatnov orqali borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 150 ming so'mdan oshmagan miqdorda;
- temir yo'lda yoki avtobusda borib-kelish chiptasi narxining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;
- joylashtirish vositasida tunab qolish xarajatining 15 foizi, lekin 80 ming so'mdan oshmagan miqdorda;
- teatr, muzey, sirk va badiiy galereyalarga har bir tashrif chiptasi narxining 50 foizi, lekin 20 ming so'mdan oshmagan miqdorda.

Sayohat xarajatlari faqatgina platforma orqali amalga oshirilgan ichki sayohatlar uchun uning yakuni bilan mahalliy turistlarning bank kartalariga qaytariladi (bugun.uz, 2022).

Mamlakatning har bir hududida turizmni rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Bunga, Namangandagi «**Afsonalar vodiysi**», Bo'stonliqdagi «**Amirsoy**» majmualari yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur majmualarga kuniga minglab xorijiy va mahalliy sayyohlarning tashrif buyurishmoqda.

«O'zbekiston turizm magistrali» bo'ylab, 31 ta tuman va shahar hududidan o'tuvchi yo'llar bo'yida avtoturargoh, kemping, avtoservis, ovqatlanish, yoqilg'i quyish kabi xizmatlarni qamrab olgan «Karvonsaroy»lar barpo etish taklifini ham berdi. Albatta, bu takliflarning amalga oshirilishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, aholi bandligining ta'minlanishi hamda turmush farovonligining oshishiga, shuningdek mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushining sezilarli ravishda ortishiga, sayyohlar oqimining ko'payishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Ta'kidlash joizki, turizm sohasining jadal rivojlanishida xususiy sektorning ham o'z o'rni bor. Hozirda ko'plab tadbirkor va hunarmandlar turizm sohasiga jalb qilingan bo'lib, ular suvenir mahsulotlarini ishlab chiqarish, mehmonxona xo'jaligi, sayyohlarga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanib kelishmoqda. Bu borada tadbirkorlarga davlat tomonidan ssudalar, subsidiyalar, kreditlar va boshqa turli imtiyozlarning taqdim etilayotgani e'tiborga loyiq.

Turizm sohasini rivojlantirish hamda tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator imkoniyatlarning belgilab berilgani, so'zimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

Jumladan, 2023 yilning 1 iyuldan boshlab, turizm qishloqlarida mehmon uylari, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, ko'ngilochar joylar tashkil etgan tadbirkorlar uch yil

davomida aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni **1 foiz** stavkada, mol-mulk, yer, suv soliqlarini hisoblangan summadan bor-yo'g'i **1 foizini** to'laydi. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida, bunday qishloqlarda mehmon uylari tashkil etishga **50 million so'mgacha**, o'tov va eko-uylar majmuasiga **300 million so'mgacha**, chodirli lagerlar qurishga **300 million so'mgacha** kreditlar beriladi. Har yili turizm qishloqlarining **200** nafar yoshlari byudjet hisobidan Turizm texnikumlarida bepul o'qitilishi belgilab qo'yilganligi kelajakda turizmni yanada rivojlanishi uchun xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar /Литература/References:

Balabanov I.T., Balabanov A.I. (2003) *Ekonomika turizma: Ucheb. pos. –M.: Finans i statistika*, - 176 s.

Berdimurodov Azizjon Shukrilloevich (2022). *Globallashuv sharoitida erkin turistik hududlarni samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari* // JMBM. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/globallashuv-sharoitida-erkin-turistik-hududlarni-samarali-rivojlantirishning-tashkiliy-iqtisodiy-mexanizmini-takomillashtirish-yo>.

Bugun.uz (2022). *O'zbekiston bo'ylab sayohat qilganlarga keshbek beriladi*, 22 avgust. Available at: <https://bugun.uz/2022/08/22/ozbekiston-boylab-sayohat-qilganlarga-keshbek-beriladi>

Norma.uz (2022). *“2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тасдиқланди”*. Available at: https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga%20muljallangan_yangi_uzbekistonning%20_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi.

Safarov, Bahodirhon, and Djumaqulov O. Sh. (2020) "Tourism industry development is increasing, new jobs will increase incomes and living standards." *Arxivarius* 2 (47): 105-107.

To'xliyev I.S., Qudratov G'X., Pardayev M.Q. (2010) *Turizmni rejalashtirish. Darslik.-Toshkent, «Iqtisodiyot-moliya» nashriyoti.* -254 bet.

Tukhliev, I.S., and Abdukhamidov S.A. (2021)"Strategic planning processes in regional tourism in the digital economy." *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance* 2.5: 22-27.

Vinokurov M.A. (2004) *Chto takoye turizm?/nauchnaya statya-* www.dissercat.com

Зорин И.В., Квартальнов В.А. (2003) *Энциклопедия туризма. –М.: Финансы и статистика*, – 368 с.